



O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA MAMLAKATLARINING MEHMONXONA SANOATIDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA SUBSIDİYALAR: IQTISODIY SAMARADORLIK TAHLILI

Tohirov Asilbek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0001-4143-7351

tokhirovasilbek153@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqot O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlarining mehmonxona sanoatini rivojlantirishda soliq imtiyozlari va subsidiya siyosatining iqtisodiy samaradorligini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda ikki mamlakat tajribasi asosida mehmonxona sektorini moliyaviy rag'batlantirish usullari, ularning investitsiyaviy jozibadorlikka va hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri kompleks tarzda o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi soliq yengilliklari va davlat subsidiyalari orqali turizm infratuzilmasini mustahkamlash, xususan, mehmonxona tarmog'i rivojiga ko'mak beruvchi iqtisodiy instrumentlarning samaradorligini aniqlashdir. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining amaliy natijalari ham empirik dalillar asosida baholanadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston va Janubiy Koreyada qo'llanilgan moliyaviy yondashuvlar samaradorligining nisbiy ustunliklari aniqlanadi, Soliq va subsidiya siyosatining hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish va turizm salohiyatini oshirishdagi ta'siri baholanadi, O'zbekiston uchun moslashtirilgan, xalqaro ilg'or tajribaga asoslangan rag'batlantirish modeli ishlab chiqiladi. Mazkur tadqiqot iqtisodchi olimlar, tahlilchilar, turizm sohasi bo'yicha qaror qabul qiluvchilar, investitsiya siyosatini shakllantiruvchi mutasaddilar, shuningdek magistratura darajasidagi tadqiqotchilar uchun amaliy va nazariy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot nafaqat mavjud iqtisodiy va institutsional muammolarni yoritadi, balki ularni hal qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ham ilgari suradi. Shuning uchun bu ish barqaror turizm siyosatini yaratish yo'lida ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, O'zbekiston va Janubiy Koreya mehmonxona sanoatida soliq imtiyozlari va subsidiyalarni qo'llash amaliyoti birinchi marta tizimli qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur ishda soliq yengilliklarining investitsiya faolligi, hududiy rivojlanish va xizmat sifati kabi mezonlarga ta'siri aniqlangan. Shuningdek, milliy sharoitga moslashtirilgan, iqtisodiy samaradorlikka yo'naltirilgan rag'batlantirish modeli ishlab chiqilib, davlat-xususiy sheriklik asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, mehmonxona sanoati, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, iqtisodiy samaradorlik, davlat-xususiy sheriklik, O'zbekiston, Janubiy Koreya, investitsiya muhiti, rag'batlantirish siyosati.

НАЛОГОВЫЕ ЛЬГОТЫ И СУБСИДИИ В ГОСТИНИЧНОЙ ИНДУСТРИИ УЗБЕКИСТАНА И ЮЖНОЙ КОРЕИ: АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Тохиров Асилбек

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. Данное научное исследование посвящено сравнительному анализу экономической эффективности политики налогового стимулирования и субсидирования в развитии гостиничного хозяйства Узбекистана и Южной Кореи. В работе комплексно изучены методы финансового стимулирования гостиничного сектора, их влияние на инвестиционную привлекательность и экономический рост региона на основе опыта двух стран. Основная цель исследования — определение эффективности экономических инструментов, поддерживающих развитие гостиничной отрасли, в частности, путем укрепления туристической инфраструктуры за счет налоговых льгот и государственных субсидий. При этом практические результаты механизмов государственно-частного партнерства также оцениваются на основе эмпирических данных. В исследовании определены относительные преимущества эффективности финансовых подходов, используемых в Узбекистане и Южной Корее; Будет оценено влияние налоговой и субсидирующей политики на сокращение межрегиональных различий и увеличение туристического потенциала; Будет разработана адаптированная для Узбекистана модель стимулирования, основанная на передовом международном опыте. Данное исследование имеет практическое и теоретическое значение для экономистов, аналитиков, лиц, принимающих решения в сфере туризма, лиц, формирующих инвестиционную политику, а также исследователей аспирантского уровня. В исследовании не только освещаются существующие экономические и институциональные проблемы, но и выдвигаются научно обоснованные предложения по их решению. Таким образом, данная работа служит надежным источником для разработки политики устойчивого туризма. Научная новизна исследования заключается в том, что впервые проведен системный сравнительный анализ практики применения налоговых льгот и субсидий в гостиничном хозяйстве Узбекистана и Южной Кореи. В ходе исследования было выявлено влияние налоговых льгот на такие критерии, как инвестиционная активность, региональное развитие и качество услуг. Также была разработана модель стимулирования, адаптированная к национальным условиям и ориентированная на экономическую эффективность, и даны практические рекомендации по развитию туристической инфраструктуры на основе государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, гостиничный бизнес, налоговые льготы, субсидии, экономическая эффективность, государственно-частное партнерство, Узбекистан, Южная Корея, инвестиционный климат, политика стимулирования.

TAX BENEFITS AND SUBSIDIES IN THE HOTEL INDUSTRY OF UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA: ECONOMIC EFFICIENCY ANALYSIS

Tokhirov Asilbek

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This scientific study is devoted to a comparative analysis of the economic efficiency of tax incentives and subsidy policies in the development of the hotel industry in Uzbekistan and South Korea. The work comprehensively studies the methods of financial stimulation of the hotel sector, their impact on investment attractiveness and regional economic

growth based on the experience of the two countries. The main objective of the study is to determine the effectiveness of economic instruments that support the development of the hotel industry, in particular, through tax incentives and state subsidies. At the same time, the practical results of public-private partnership mechanisms are also evaluated based on empirical evidence. During the study, the relative advantages of the effectiveness of financial approaches used in Uzbekistan and South Korea are determined; The impact of tax and subsidy policies on reducing interregional disparities and increasing tourism potential is assessed; An incentive model adapted for Uzbekistan, based on international best practices, is developed. This study is of practical and theoretical importance for economists, analysts, tourism decision-makers, investment policymakers, as well as postgraduate researchers. The study not only highlights existing economic and institutional problems, but also puts forward scientifically based proposals for their solution. Therefore, this work serves as a reliable source for creating a sustainable tourism policy. The scientific novelty of the study is the first systematic comparative analysis of the practice of applying tax incentives and subsidies in the hotel industry of Uzbekistan and South Korea. This work identifies the impact of tax incentives on criteria such as investment activity, regional development, and service quality. In addition, an incentive model adapted to national conditions and focused on economic efficiency was developed, and practical recommendations were given for the development of tourism infrastructure based on public-private partnerships.

Keywords: *tourism infrastructure, hotel industry, tax incentives, subsidies, economic efficiency, public-private partnership, Uzbekistan, South Korea, investment climate, incentive policy.*

Kirish.

Global miqyosda turizm sanoati iqtisodiy o'sish, bandlik yaratish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mehmonxona sanoati turizm infratuzilmasining asosiy tarmoqlaridan biri sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar eksportini kengaytirish va ichki bozorni faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday sharoitda davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlari ushbu sektorda investitsiya jozibadorligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-5-sonli qarorida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda soliq va moliyaviy rag'batlantirish choralarining kuchaytirilishi belgilangan. Xususan, mehmonxona qurilishi bilan shug'ullanuvchi subyektlarga yer solig'i, mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar va foydaning qayta investitsiya qilingan qismi uchun soliq kechikmalarining joriy etilishi belgilangan. Shunga kabi yondashuv Janubiy Koreyada ham 2019-2024-yillarda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish dasturlari doirasida amalga oshirilib, mehmonxona sektoriga 1,2 trillion von miqdorida subsidiya va kreditlar ajratilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda bu yo'nalishda tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, soliq yengilliklari asosan yirik shaharlarda faoliyat yuritayotgan korxonalargagina berilishi, subsidiya ajratish mezonlarining aniqligi va ochiqligi yetarli emasligi, nazorat va monitoring mexanizmlarining sustligi sohaga sarmoya kiritish jarayonida ma'lum to'siqlarga sabab bo'lmoqda. Aksincha, Janubiy Koreyada (Housing & Urban Development) va (Korea Tourism Organization) orqali subsidiya siyosati raqamli platformalar orqali boshqarilib, oshkoralik va samaradorlikka erishilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu ilmiy tadqiqot O'zbekiston va Janubiy Koreya tajribalarini qiyosiy tahlil qilish orqali soliq imtiyozlari va subsidiya siyosatining iqtisodiy samaradorligini o'rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va milliy modelni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda ilk bor O'zbekiston mehmonxona sanoatida davlat moliyaviy rag'batlantirish choralarining aniq ko'rsatkichlari Janubiy Koreya tajribasi bilan empirik asosda solishtirilib, raqamli boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik va iqtisodiy

samaradorlik indikatorlari nuqtai nazaridan baholash amalga oshiriladi. Bu esa turizm siyosatini yanada samarali shakllantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Adabiyotlar sharhi.

MDH mamlakatlari, mahalliy tadqiqotchilar, shuningdek xorijlik tadqiqotchilar tomonidan mehmonxona sanoatida soliq imtiyozlari va subsidiyalarning iqtisodiy samaradorligi tahlili bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ilmiy izlanishlar asosan mexmonxona infratuzilmasi, soliq yengilliklari, subsidiya siyosatining turizm infratuzilmasiga ta'siri kabi yo'nalishlarni qamrab oldi.

Mahalliy tadqiqotchi olim Ruzmetov va Kadirovalar (2022) tomonidan "O'zbekiston sharoitida turistik zonlarda faoliyat yurituvchi mehmonxona sub'yektlariga taqdim etilgan soliq imtiyozlari va ularning investitsiya oqimlariga ta'siri" mavzusida olib borilgan tadqiqotda, O'zbekistonda mehmonxona infratuzilmasi rivojiga soliq yengilliklarining ta'sirini tahlil qilib, ayniqsa turizm hududlarida investitsiyaviy rag'batlar yetarli emasligini asoslab o'tganlar. Tadqiqot empirik jihatdan tahlil qilingan bo'lib, mamlakatda mavjud yengilliklarning aksariyati qisqa muddatli va hududiy cheklangan bo'lib qolayotganini ta'kidlaganlar.

Norqulov va Bekmuratovlar (2023) tomonidan "Subsidiya ajratishdagi byurokratik to'siqlar, monitoring mexanizmlarining zaifligi va soliq yengilliklari ko'lamining kichikligi" mavzusida olib borilgan tadqiqotda, mehmonxona sektoriga qaratilgan subsidiya siyosatining tahlili, subsidiya ajratishdagi shaffoflik va monitoring muammolariga urg'u berilib, xususiy sektor tomonidan mehmonxona qurilishi bo'yicha risklar yuqori bo'lib qolayotganini asoslab bergan.

Tadqiqotchi olim Turobov (2021) tomonidan "Mehmonxona infratuzilmasiga bo'lgan makroiqtisodiy ta'sir" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotda ham O'zbekistonning soliq siyosatida xususiy sektor uchun yaratilgan sharoitlar va ularning turizmga ta'siri haqida makroiqtisodiy baholashni taklif qilgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchi olimlaridan Zorin (2020) tomonidan "Rossiya Federatsiyasining turizm strategiyasida moliyaviy rag'batlantirishning ahamiyati va turistik zonalarga berilgan preferensiyalar samarasi tahlili" mavzusida olib borilgan tadqiqot davomida Rossiya Federatsiyasida soliq yengilliklari orqali mehmonxona sanoatini rivojlantirish strategiyasini taklif qilgan. U ta'sir ko'rsatkichlarini tahlil qilgan.

Qozog'istonlik tadqiqotchi Abdullayev (2022) tomonidan "Mehmonxona infratuzilmasiga subsidiya ajratish va hududiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik model asosida tahlil" mavzusida olib borgan tadqiqotda soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlarining hududiy nomutanosiblikni kamaytirishga ta'sirini statistik modellashirish orqali o'rgangan.

Belarusiyalik tadqiqotchi olim Petrova (2019) tomonidan "Davlat-xususiy sheriklik asosida mehmonxona biznesiga soliq yengilliklari berilishi" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik modeli doirasida mehmonxona biznesini rivojlantirishga qaratilgan soliq yengilliklarining amaliy natijalarini o'rganadi. Tadqiqot xulosalarida bu kabi mexanizmlarning barqaror turizm siyosatiga integratsiyalashuvi muhim ekani ta'kidlanadi.

Janubiy Koreyalik tadqiqotchi olim Song, Kim va Parklar (2021) tomonidan "Mehmonxona infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilishda soliq chegirmalari, yer solig'idan ozod qilish va "Tourism Promotion Fund" orqali subsidiya ajratish mexanizmlarining kompleks samaradorligi" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotda, Koreyada turizm infratuzilmasini davlat tomonidan subsidiya asosida qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari tahlil qilingan.

Lee va Choilar (2023) tomonidan "mehmonxona sektorida qo'llanilgan moliyaviy yondashuvlarning mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, xususan daromad, bandlik va xizmat sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini panel regressiya modellarida tahlil" mavzusida tadqiqot olib borilgan.

Tadqiqotda mehmonxona sektorida soliq siyosatining investitsiyalarni jalb qilishdagi rolini mikro- va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida o'rgangan.

Mazkur adabiyotlar sharhidan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston, MDH mamlakatlari va Janubiy Koreyada mehmonxona sanoatida soliq imtiyozlari va subsidiyalar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu moliyaviy rag'batlantirish choralarining iqtisodiy samaradorligini har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotlar milliy siyosatdagi farqlar, rag'batlantirish mexanizmlarining ishlash sifati, xususiyl sektor ishtiroki va hududiy nomutanosiblik masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Mahalliy olimlar asosan mavjud yengilliklarning amaliy samarasini, byurokratik to'siqlarni va monitoring tizimining sustligini muammoli jihat sifatida ko'rsatgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotchilar ilg'or statistik yondashuvlar, davlat-xususiyl sheriklik modellarining ishlash mexanizmlari va xizmat sifati o'zgarishini chuqur tahlil qilgan. Ayniqsa, Janubiy Koreya tajribasi soliq chegirmalari va subsidiya fondlari orqali mehmonxona sektorini modernizatsiya qilishda kompleks yondashuvlarni taklif etayotgani bilan ajralib turadi.

Tadqiqotlarning bu xilma-xilligi mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ular asosida soliq siyosatining iqtisodiy samaradorligini baholovchi komparativ modellar ishlab chiqish va O'zbekiston sharoitida ularni tatbiq etish bo'yicha takliflar shakllantirish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlarining mehmonxona sanoatida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari va subsidiya siyosatlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilish masalalari o'rganiladi. Ilmiy ish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan: statistik tahlil, qiyosiy tahlil, empirik tahlil, huquqiy tahlil, kontent tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2024-yilning 1-oktabridan joriy etilgan yangi tartibga ko'ra, turizm, mehmondo'stlik va ovqatlanish xizmatlari sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'yektlari qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) ma'lum qismini qaytarib olish huquqiga ega bo'ldilar. Ushbu chora-tadbirlar sohaga moliyaviy yengillik yaratish, soliq yukini kamaytirish, investitsiyalarni rag'batlantirish hamda naqd pulsiz to'lovlar ulushini oshirishga qaratilgan bo'lib, mexanizmga ko'ra, turizm operatorlari va mehmonxonalar to'langan QQSning 20 foizini, 2025-yildan esa oziq-ovqat xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatiga qarab 20–40 foizini qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Bu tizimdan samarali foydalanish uchun korxonalar barcha soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajargan bo'lishi, xizmatlarning 90%dan ortig'i shu sohalarga to'g'ri kelishi hamda elektron hisob-fakturalar orqali shaffof faoliyat yuritishi lozimligi haqida tahlillar olib borilgan (kun.uz, 2024).


Tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan yondashuv O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiya qilish, ayniqsa mehmonxona va ovqatlanish infratuzilmasida likvidlikni oshirish hamda qayta investitsiyani rag'batlantirish imkonini beradi. Naqd pulsiz to'lovlar ulushining oshishi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi, soliq bazasining kengayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aniqlanishicha, mehmonxona sanoati xizmat ko'rsatish sektorida QQS bazasi kengayadi, bu esa byudjetga qo'shimcha tushumlar keltiradi. Jumladan, aylanish mablag'lari erkinligi oshgan korxonalar modernizatsiya, xizmat sifati va bandlikni oshirishga yo'naltirilgan qayta investitsiya imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, infrastrukturasining kengayishi va "formalizatsiyalashgan iqtisodiyot"ga o'tish sur'atlanadi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, 2025-yil 3-iyun kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga aholi turmush darajasini

yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va turizm sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qarori asosida investorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab olingan. Shuningdek, Respublika hududida mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirishni rag'batlantirish, turistik xizmatlar sifati va salohiyatini oshirish maqsadida, investorlar tomonidan mehmonxona obyektlarini qurish hamda ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash uchun yo'naltirilgan xarajatlarning bir qismini davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplashga qaratilgan subsidiyalar ajratish bo'yicha taklif va murojlatlar ko'rib chiqilgan. Ushbu murojlat atroflicha o'rganilgan holda joriy yilning 2025-yil 31-dekabr qadar uzaytirilishi belgilab o'tilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yaxshilash, mehmonxona xo'jaligi faoliyatini jadallashtirish va barqaror turizm infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy rag'batlar tizimini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bu borada davlat tomonidan moliyaviy mexanizmlarning faollashtirilayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (gov.uz, n.d.).

Model sinovlari natijasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "2025–2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin oshirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon doirasida, turizm sohasini modernizatsiya qilish va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari belgilab o'tilgan bo'lib, mazkur farmonga ko'ra, 2027-yil 1-yanvarga qadar tadbirkorlar tomonidan kamida 10 ta moduldan iborat modulli mehmonxonalarni qurish va jihozlash bilan bog'liq kapital xarajatlarning bir qismini qoplash maqsadida davlat byudjeti hisobidan bir martalik subsidiya ajratiladi. Subsidiyalarning differensiallashgan miqdorlari quyidagicha belgilanilishi keltirib o'tilgan bo'lib ular quyidagi ketma-ketlikni yaratadi: 1-rasm.



1-rasm. Modulli mehmonxonalar* uchun subsidiya miqdorlari va toifalar bo'yicha taqsimoti

* Modulli mehmonxonalar — qisqa vaqt ichida yig'ma elementlar asosida quriladigan, energiya samarador va ekologik xavfsiz hisoblangan zamonaviy joylashtirish vositasidir. Bu turdagi mehmonxonalar sanoat usulida tayyorlangan tayyor modullar (bloklar) asosida yasaladi va keyinchalik tanlangan hududga joylashtiriladi.

Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika Korea Culture & Tourism Institute va Uzbektourism manbasiga hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, har uchala toifaga oid modulli mehmonxonalarning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Birinchi toifa mehmonxonalari eng yuqori darajadagi xizmat sifati va jihozlash talablariga javob beradi. Ular yevropa standartlariga yaqin bo'lgan sanitariya-texnika uskunalari, mustaqil iqlim nazorati tizimi (konditsioner, isitish tizimi) hamda zamonaviy dizayn va yuqori servis darajasi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi toifa mehmonxonalari esa o'rtacha darajadagi qulaylik va texnik ta'minotga ega bo'lib, ular standart yotoqxona sharoitlari, modul ichida yoki umumiy holda joylashtirilgan sanitariya tugunlari hamda ventilyatsiya tizimi bilan ta'minlangan. Bu toifadagi xizmat sifati barqaror bo'lsa-da, birinchi toifaga nisbatan soddaroq dizayn va jihozlash bilan tavsiflanadi.

Uchinchi toifa mehmonxonalari esa minimal darajadagi sharoitlar asosida tashkil etilib, asosan asosiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan. Bunday turdagi mehmonxonalarda kapsula tipidagi modul xonalar yoki umumiy yotoqxona shakllari qo'llaniladi. Sanitariya va maishiy xizmatlar odatda alohida umumiy zonada joylashtiriladi.

O'rganilgan holatlar shuni tasdiqlaydiki, mazkur yondashuv asosida sayyohlarni joylashtirish infratuzilmasini tezkorlik bilan kengaytirish, xususan, qisqa muddatlarda tashkil etilishi mumkin bo'lgan modulli mehmonxonalar orqali mavjud talabga mos keluvchi xizmatlarni taqdim etish imkoniyati yaratiladi (kun.uz, 2025).

Tahlil qilinayotgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025–2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlili quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatmoqda:

Birinchidan, MyID tizimi asosida raqamli identifikatsiyalash mexanizmining joriy etilishi O'zbekiston turizm sohasida xizmatlar ko'rsatish jarayonining avtomatlashtirilishi va byurokratik to'siqlarning bartaraf etilishiga xizmat qilmoqda. Mazkur texnologik yechim mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarida sayyohlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtiradi, bu esa mijozlar qulayligi, xizmat ko'rsatish tezligi va axborot xavfsizligi darajasini oshiradi. Bu holat turizmga raqamli transformatsiya jarayonining amaliy ifodasidir.

Ikkinchidan, Turizmning yagona milliy platformasi doirasida barcha davlat elektron tizimlarining integratsiyalashuvi orqali ma'lumotlar bazasining markazlashtirilgan asosda boshqarilishi ta'minlanadi. Bu esa axborot oqimini optimallashtirish, real vaqt rejimida monitoring o'tkazish, statistik tahlillarni amalga oshirish va turistik oqimni prognozlashda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu orqali davlat siyosati va xususiy sektor o'rtasida ma'lumot almashinuvi institutsional jihatdan mustahkamlanadi.

Uchinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, apart-mehmonxonalar, kapsula turdagi uylar hamda zamonaviy dam olish zonalari kabi joylashtirish vositalarining joriy etilishi turistik xizmatlar segmentatsiyasini kengaytiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, yoshlar, talabalar va qisqa muddatli turizmga ehtiyoj bildirayotgan iste'molchilar uchun moslashuvchan, arzon va innovatsion muqobil yechimlarni taqdim etadi. Shuningdek, turizm infratuzilmasining funksional diversifikatsiyasi va hududiy sohadagi xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, xorijiy mamlakatlardagi O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari tomonidan xorijiy turistlarni jalb qilish bo'yicha shakllantirilgan tashqi marketing strategiyalari va xalqaro "roadshow" tadbirlari ("Roadshow" tadbirlari — bu sarmoyadorlar, hamkorlar yoki keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilish maqsadida bir nechta shaharlarda yoki joylarda tashkil etiladigan taqdimotlar va uchrashuvlar seriyasidir.) mamlakatning turistik brendini xalqaro bozorda mustahkamlashga qaratilgan. Bu tashabbuslar orqali O'zbekistonning raqobatbardoshligi oshadi, xalqaro miqyosdagi turistik investitsiyalarni jalb qilish salohiyati kengayadi va turizm eksportining ulushi oshadi.

Beshinchidan, hududiy rivojlanish indikatorlari asosida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi" turizmni hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bu yondashuv viloyatlarning ichki turistik salohiyatini ishga solish, resurslar taqsimotida adolatli yondashuvni shakllantirish va mahalliy iqtisodiyotda xizmatlar sektorining ulushini ko'paytirishga yo'naltirilgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025–2026 yillarga mo'ljallangan turizm siyosati o'zida raqamli transformatsiya, infratuzilmaviy yangilanish, ichki va tashqi turizmni rag'batlantirish, va xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvni mujassam etmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston turizm sohasining jahon standartlariga mos modernizatsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi (kun.uz, 2025).

Kuzatuvlarga natijasiga ko'ra, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, chekka va tog'li hududlarda turistik xizmatlar qamrovini kengaytirish hamda hududiy turizm infratuzilmasining diversifikatsiyasini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2024-yil 13-sentabrda "Modulli mehmonxonani qurish va jihozlash uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risida"gi vaqtinchalik normativ-huquqiy hujjat tasdiqlanib, mazkur hujjat tadbirkorlik subyektlari uchun investitsiyaviy rag'bat mexanizmlarini takomillashtirish va ekologik turizmni strategik yo'nalish sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, geografik jihatdan murakkab yoki transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda modulli tipdagi mehmonxonalar orqali qisqa muddatlarda turistik joylashtirish imkoniyatlarini yaratishga alohida urg'u qaratilgan. Bu chora-tadbir nafaqat sayyohlik oqimini kengaytirish, balki mahalliy iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari tashkil etish va xizmatlar sektorining ulushini oshirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilishiga amaliy asos bo'ladi.

Mazkur vaqtinchalik nizom doirasida, 2024-yil 1-oktabrdan 2026-yil 31-dekabrga qadar bo'lgan davr mobaynida modulli mehmonxonalarni qurish va ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlashga yo'naltirilgan kapital xarajatlarning bir qismini qoplash maqsadida Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan bir martalik subsidiya ajratilishi belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy mexanizm investitsiya faoliyatini rag'batlantirish bilan bir qatorda, barqaror, ekologik xavfsiz va tez yig'iladigan turistik infratuzilma turlarining keng joriy etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, joylashtirish vositalarining ixchamligi, ko'chma xususiyati va qisqa muddatlarda ekspluatatsiyaga topshirilishi kabi afzalliklari ushbu tashabbusni chekka, tog'li va infratuzilmasi cheklangan hududlar uchun strategik jihatdan dolzarb qiladi. Bu esa, o'z navbatida, hududiy turizmning muvozanatli rivojlanishi hamda ekologik toza turizm modellari integratsiyasi uchun poydevor yaratadi.

Tahlillarga ko'ra, subsidiya olish huquqiga ega modulli mehmonxonalar quyidagi mezonlarga javob berishi lozimligi ko'rsatilgan. Jumladan, mehmonxona kamida 10 ta moduldan iborat bo'lishi, 2024-yil 1-oktabrdan 2026-yil 1-noyabrgacha bo'lgan muddatda tashkil etilishi, hamda modulli mehmonxona uchun muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lishi.

Aniqlanishicha, subsidiya miqdori har bir yaratilgan joy (yotoq) uchun 1 million so'm etib belgilangan. Subsidiya ajratilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ-193-sonli "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferentsiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablari asosida amalga oshiriladi.

Ushbu mexanizm ekologik turizmga ixtisoslashgan hududlarda sarmoyadorlar va kichik biznes vakillari uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, infrastruktura yetishmovchiligi kuzatilayotgan hududlarda (tog'li, qishloq joylar) turistlarni joylashtirish salohiyatini oshirish orqali turizmning hududiy balansini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, subsidiya mexanizmi orqali modulli turistik obyektlarni joriy etish tezlashtirilishi, innovatsion va ekologik xavfsiz joylashtirish vositalari rivojlantirilishi va davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishini ko'zda tutadi. Umuman olganda, subsidiya asosida modulli mehmonxonalarni qo'llab-quvvatlash siyosati qisqa muddat ichida turistik talabga javob beruvchi joylashtirish infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qiladi va

O'zbekistonning barqaror va ekologik yo'naltirilgan turizm modelini shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi (toshkent-vil.adliya.uz, n.d.).

Tadqiqot tahlillar shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyaning mehmonxona sanoati iqtisodiy jihatdan yuksak darajada raqobatbardosh va xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha global standartlarga moslashgan tarmoq hisoblanadi. Biroq, bu sohadagi aksariyat subyektlar xususiy kompaniyalar bo'lgani sababli, ularning moliyaviy hisobotlari ochiq aktsiyadorlik jamiyatlaridagi kabi umumiy foydalanish uchun ochiq e'lon qilinmaydi. Bu holat tarmoq bo'yicha chuqurroq tahlillarni amalga oshirishda ba'zi cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Aniqlanishicha, mehmonxona sanoatining bozor salohiyati, yillik daromadlar, rentabellik ko'rsatkichlari va o'sish sur'atlari kabi makroiqtisodiy indikatorlar bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlar sanoat tadqiqot firmalari (*Statista, IBISWorld, Euromonitor*) tomonidan muntazam ravishda taqdim etiladi.

Jumladan, *Statista* ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreya mehmonxona bozori 2025-yilga kelib 8,58 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR – Compound Annual Growth Rate CAGR bu yillik o'rtacha murakkab o'sish sur'ati bo'lib, ma'lum vaqt oralig'ida investitsiya, daromad yoki boshqa ko'rsatkichning qanday o'sganini foizda ifodalaydi. Bu ko'rsatkich yilma-yil o'sishni silliqlashtirib, real o'sish sur'atini ko'rsatadi.) 2025–2029 yillar oralig'ida 3,89% atrofida bo'lishini anglatadi. Bu raqamlar, bir tomondan, Koreya mehmonxona bozorining barqaror va progressiv yo'nalishda rivojlanayotganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, investitsiyalar jalb qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda aniq rejalashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu holat, shuningdek, mehmonxona tarmog'i uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, infratuzilmaviy rivojlanish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va barqaror turizm konsepsiyasi doirasida davlat siyosatining muhimligini yanada oshiradi (*statista.com, n.d.*).

Janubiy Koreya Respublikasi o'zining iqtisodiy taraqqiyot strategiyasida soliq siyosatini samarali boshqaruv vositasi sifatida qo'llab kelmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy faollikni stimulyatsiya qilish yoki muayyan sohalarni tartibga solish maqsadida sektorlararo differensial soliq yondashuvi joriy etilgan. Soliq imtiyozlari va yengilliklari iqtisodiy o'sish uchun ustuvor yo'nalishlar deb topilgan sanoat tarmoqlari bilan cheklangan holda qo'llaniladi. Natijada, kompaniyalar o'rtasida soliq yuklamasi bo'yicha farqlar yuzaga keladi, bu esa sanoatlararo tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nazariy tahlilga ko'ra, mehmonxona sanoati, ayniqsa, Koreya og'ir iqtisodiy vaziyatda bo'lgan davrlarda, milliy daromadni barqarorlashtirishda va bandlikni saqlashda muhim rol o'ynagan. Biroq, bu sektor "iste'molga yo'naltirilgan xizmat sohasi" sifatida tasniflanishi sababli, ko'p hollarda korporativ soliqlardan ozod etish yoki imtiyozlar qo'llash doirasidan chetda qolgan. Natijada, mehmonxona sektorining investitsiya jalb qilish va rivojlanish salohiyati yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmagan.

Ushbu tadqiqot aynan mavjud soliq tizimi va uning mehmonxona sohasiga ta'sirini chuqur tahlil qilish, shuningdek, sektorni rivojlantirishga xizmat qiladigan qonunchilikdagi bo'shliqlar va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Shu maqsadda, korporativ soliqlarni kamaytirish va ozod qilishga doir qonun hujjatlaridagi 26 ta asosiy qoida tanlab olindi. Ularning mehmonxona sektori amaliyotida qanday aks etishini baholash uchun xodimlar faoliyati, samaradorlik, boshlang'ich investitsiyalar, moliyaviy yuklama va kasbiy tayyorgarlik darajasi kabi beshta asosiy ko'rsatkich asosida kompleks tahlil o'tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mehmonxona faoliyatini boshlayotgan subyektlar uchun soliqlardan vaqtincha ozod qilish, xodimlarni qayta tayyorlash bo'yicha sarmoyalarni rag'batlantirish, shuningdek, samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan imtiyozlar sektor rivoji uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan birga, davlat tomonidan beriladigan soliq yengilliklarining mehmonxona

tarmog'i uchun ochiq va aniqlashtirilgan tartibda qo'llanilishi soha investitsion jozibadorligini oshiradi (kiss.kstudy.com, n.d.).

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, mehmonxona sanoatida joriy yil bo'yicha Janubiy Koreyaning ko'zga ko'ringan mashhur mehmonxonalaridan hisoblangan "LOTTE HOTELS & RESORTS" brendi ostida faoliyat yurutuvchi mehmonxonasi o'zining bir qancha xizmatlarini taklif qilish orqali bir necha xil segmentga (biznes, yoshlar, premium, oilaviy) ta'riflarga moslashgan xizmatlarni taklif qilmoqda. (LOTTE HOTELS & RESORTS 1973-yilda tashkil etilgan bo'lib, koreys mehmonxona madaniyatini jahon miqyosiga ko'tarish maqsadida tashkil etilgan. Bugungi kunda u Koreyadagi eng yirik mehmonxona brendi bo'lib, 7 ta davlatda 35 dan ortiq ob'ektlarni boshqaradi. LOTTE HOTELS & RESORTS brendini diversifikatsiya qilish orqali mijozlarning keng doirasiga mos keladigan noyob mahsulot va xizmatlarni taklif qilishda davom etadi. Biz o'zimizni butun dunyo bo'ylab seviladigan global mehmonxonalar tarmog'i sifatida ko'rsatamiz va kutilganidan ham oshib ketadigan ajoyib xizmat va moslashtirilgan tajribalarni taqdim etadi.) Buning natijasida esa mehmonxona o'zining dunyo va jahondagi brendini saqlab qolish uchun harakat qilmoqda (lottehotel.com, n.d.).

1-jadval

Janubiy Koreya va O'zbekiston mehmonxona sanoatida soliq va subsidiya siyosati bo'yicha solishtirma tahlil jadvali

Tahlil mezonlari	Janubiy Koreya	O'zbekiston
Soliq siyosatining yondashuvi	Selektiv, faqat strategik faoliyatlarga (ekologiya, texnologiya, eksport)	Davlat tomonidan aniqlangan ustuvor yo'nalishlarga (turizm, modulli mehmonxonalar) subsidiya ajratiladi
Mehmonxona faoliyatining maqomi	Iste'molga yo'naltirilgan xizmat – soliq imtiyozlaridan cheklangan	Davlat rag'batlantirish ro'yxatida, ayniqsa, modulli mehmonxonalar
Subsidiya miqdori	Asosan infratuzilma va yashil loyihalar uchun; miqdori loyihaga bog'liq	Har bir joy uchun 5–10 mln so'm (modulli mehmonxona toifasiga qarab)
Qamrab oluvchi hududlar	Poytaxtdan tashqari hududlarda rag'bat kuchliroq	Tog'li va chekka hududlarda subsidiya ko'proq qo'llanilmoqda
Imtiyoz sharti	Faoliyat turi, ekologik mezonlar, mahalliy aholi bandligi	Kamida 10 modul, muvofiqlik sertifikat, belgilangan muddatda qurilishi
Solih yengilliklari	R&D, energiya tejankor texnologiya uchun qo'llaniladi	Ba'zi hollarda daromad solig'i yoki bojxona imtiyozlari ko'zda tutilgan
Monitoring tizimi	Yillik hisobot, soliq deklaratsiyasi orqali monitoring	Hukumat tomonidan subsidiya ajratilgan loyihalar bo'yicha hisobot talab etiladi
Kapital struktura siyosati	Leverage siyosati yirik kompaniyalarga mo'ljallangan	Aksariyat loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida
Xalqaro pozitsiyalash	LOTTE, Shilla, Walkerhill singari brendlar bilan eksportga chiqmoqda	Ichki bozor uchun maxsus formatdagi loyihalar (apart-hotel, modulli mehmonxona) yo'lga qo'yilmoqda
Xulosa	Yirik tarmoqlar, aniqlashtirilgan soliq siyosati bilan ish olib boriladi	Bosqichma-bosqich rivojlanayotgan, biroq davlat qo'lloviga asoslangan tizim mavjud

Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika Korea Culture & Tourism Institute va Uzbektourism manbasiga hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya mehmonxona sanoatini yuritish uchun kompaniyaning asosiy faoliyati iste'molga yo'naltirilgan soha (hotel, bar) bo'lsa – imtiyozdan chetlanadi. Faqat turizm infratuzilmasi, transport yoki IT xizmatlari ko'rsatadigan subyektlar subsidiya yoki soliq yengilligiga ega bo'ladi. Shuningdek, mehmonxona sanoati bilan shug'ullanuvchi har qanday faoliyat egasi subsidiya olish mezonlari — ijtimoiy va iqtisodiy natijalar bilan o'lchanadi: bulardan nechta yangi ish o'rni yaratiladi, qancha mahalliy aholi band

bo'ladi hamda nechta xorijiy sayyoh jalb qilinadi kabi natijalarni aks ettirgan holda subsidiya olishga ega bo'lishlari mumkin bo'ladi hamda subsidiya yoki soliq yengilligi olgan mehmonxonalar har yili samaradorlik hisobotini taqdim etishligi muhim hisoblanadi. Bu esa taqdiqot faoliyatlari uchun yanada samarali ahamiyatni kasb etadi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Janubiy Koreya va O'zbekiston mehmonxona sanoatida soliq va subsidiya siyosatlari mohiyat e'tibori bilan farqlanadi. Xususan, Janubiy Koreyada selektiv yondashuv ustuvor bo'lib, davlat imtiyozlari faqat strategik ahamiyatga ega, texnologik yoki eksportga yo'naltirilgan loyihalarga beriladi. Mehmonxona sohasi esa odatda **iste'molga yo'naltirilgan xizmat turi** sifatida ko'rilgani sababli, bu tarmoq soliq yengilliklaridan keng foydalana olmaydi.

Aksincha, O'zbekistonda mehmonxona faoliyatini, ayniqsa modulli mehmonxonalarni qurish va jihozlashni rag'batlantirish uchun faol qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud. Xususan, joylashtirish vositalari uchun subsidiya ajratish, chekka hududlarda ustuvorlik berish hamda soddalashtirilgan ruxsatnomalar tizimi orqali bu soha investorlar uchun jozibador qilinmoqda.

Tahlil natijalari asosda xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston hozirda **keng** qamrovli qo'llab-quvvatlovchi siyosatni olib bormoqda, Koreya esa maqsadli, tanlab qo'llaniladigan rag'batlantirish uslubini afzal ko'rmoqda. Bu esa ikki davlatning iqtisodiy siyosatidagi strategik ustuvorliklar va yondashuvlardagi farqni yaqqol aks ettiradi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston va Janubiy Koreyaning mehmonxona sanoatiga nisbatan soliq-subsidiya siyosatlari o'zaro keskin farqlanadi. Koreya iqtisodiy samaradorlik va strategik yo'nalishlarga asoslangan selektiv yondashuvni tanlagan bo'lsa, O'zbekiston keng qamrovli va sarmoyadorlarga qulay muhit yaratishga qaratilgan faol qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'ygan. Bu ikki model o'rtasidagi tafovut, davlat siyosatining turizm sohasi taraqqiyotiga qanday yo'naltirilayotganini, xususan, modulli mehmonxonalar va infratuzilma rivojiga berilayotgan e'tiborni yaqqol namoyon etadi.

Takliflar. 1. "Raqamli mehmonxona pasporti" tizimi joriy etish, har bir yangi qurilayotgan yoki subsidiyadan foydalanayotgan mehmonxona uchun "Raqamli pasport" joriy qilish. Bu platforma binoning ekologik darajasi, xizmat sifati, texnik nazorat, soliq to'lovlari, QR identifikatsiya va boshqa parametrlarni o'z ichiga olishini ta'minlash.

2. "Turizm dizayni inkubatori" tashkil etish, turizmga oid modulli mehmonxona dizayni, ichki arxitektura, marketing strategiyasi va xizmat standartlarini birlashtiruvchi startaplar uchun inkubatorlar ochish.

3. "Kichik joylashtirish vositalari reyestri" Airbnb, kapsula mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va yotoqxona tipidagi joylashtirish vositalarini alohida reyestrda yuritish. Ular uchun maxsus soliq stavkasi, sog'liqni saqlash va xavfsizlik talablarining yengillashtirilgan varianti belgilash.

4. "Subsidiyalangan energiya texnologiyalari to'plami" modulli mehmonxonalarga subsidiya ajratishda ularning quyosh panellari, suv tejovchi texnika, ekologik materiallardan foydalanish darajasi bo'yicha baholash joriy qilish.

5. Chekka hududlar uchun "ko'chma mehmonxona" modeli orqali tog'li yoki cho'l zonalarida sayyohlar oqimini vaqtincha qabul qilish uchun konteyner tipidagi ko'chma mehmonxonalar tizimi rivojlantirish.

6. "Sayyohlik loyihalar reytingi" Barcha mehmonxona-investitsiya loyihalarini xalqaro standartlar asosida reytinglash tizimini joriy qilish

Mehmonxona sanoatini rivojlantirish bo'yicha takliflar shuni ko'rsatadiki, nafaqat iqtisodiy rag'batlantirish, balki innovatsion boshqaruv, raqamli integratsiya, ekologik barqarorlik va mahalliy salohiyatni faollashtirish orqali uzoq muddatli samaradorlikka erishish mumkin. Bu takliflar hozirgi sharoitda amalga oshirishga tayyor bo'lib, turizm infratuzilmasini

transformatsiya qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli pasport, ko'chma mehmonxonalar, va ekologik bonuslar kabi yechimlar O'zbekistonning turizm sohasida raqobatbardoshligini oshiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdullayev, R. (2022). *Kazakhstan: Statisticheskij analiz svyazi mezhdu subsidiyami i regional'nyim razvitiem v gostinichnom biznese*. Qozog'iston Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi Nashrlari, 2(1), 31–38.

Gov.uz (2024). O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi rasmiy sayti. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/59405>

Kun.uz (2025a). Mehmonxonaga hujjat taqdim etmay, MyID identifikatsiyasi bilan kirish mumkin bo'ladi. <https://kun.uz/news/2025/05/22/mehmonxonaga-hujjat-taqdim-etmay-myd-identifikatsiyasi-bilan-kirish-mumkin-boladi>

Kun.uz (2025b). Tadbirkorlarga modulli mehmonxonalar qurish uchun subsidiya ajratiladi. <https://kun.uz/news/2025/05/20/tadbirkorlarga-modulli-mehmonxonalar-qurish-uchun-subsidiya-ajratiladi>

Lee, S. & Choi, Y. (2023). Evaluating the effects of fiscal approaches on hotel sector performance using panel regression models. *Korean Journal of Hospitality and Tourism*, 15(1), 88–96.

LOTTE HOTELS & RESORTS (2024). Brend tarixi va rivojlanish bosqichlari. <https://www.lottehotel.com/global/en/about-lottehotel/history>

Norqulov, F. & Bekmuratova, G. (2023). Subsidiya ajratishdagi byurokratik to'siqlar, monitoring mexanizmlarining zaifligi va soliq yengilliklari ko'lamining kichikligi. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 7(2), 67–74.

Petrova, E.V. (2019). Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo i nalogovye l'goty v razviti gostinichnogo biznesa v Respublike Belarus'. *Turizm i ekonomika*, 4(2), 55–62.

Ruzmetov, Sh. & Kadirova, D. (2022). O'zbekiston sharoitida turistik zonlarda faoliyat yurituvchi mehmonxona sub'yektlariga taqdim etilgan soliq imtiyozlari va ularning investitsiya oqimlariga ta'siri. *Turizm va iqtisodiyot jurnali*, 4(1), 45–52.

Song, M., Kim, H. & Park, J. (2021). Fiscal incentives and tourism investment: Evidence from Korea's hotel sector. *Journal of Tourism Economics and Policy*, 13(4), 102–115.

Statista (2024). South Korea Hotel Market Outlook. <https://www.statista.com/outlook/mmo/travel-tourism/hotels/south-korea>

Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi (2025). Modulli mehmonxonalar haqida rasmiy axborot. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=67321>

Turobov, Z. (2021). Mehmonxona infratuzilmasiga bo'lgan makroiqtisodiy ta'sir: O'zbekiston misolida. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 3(3), 21–29.

Vu Gon Kim (1999). Koreya mehmonxona sanoatida kapital tuzilmasini tanlashga ta'sir qiluvchi omil. *Turizm fanlari jurnali*, 23(1), 23–36.

Zorin, I.V. (2020). Finansovye stimuly v strategii razvitiya turizma v RF: nalogovye l'goty i preferencii dlya turistskix zon. *Rossiya iqtisodiyoti va sayyohlik siyosati jurnali*, 5(1), 12–19.